

FARG'ONA SHAHRI FLORASIDA O'SUVCHI LIPA O'SIMLIGI TURLARINING CHANGLANISHI

O'rinboyev Ilxomjon Ravshanovich
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
Umurzakova Farangiz Baxtiyarovna
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Lipa o'simligining asosiy ko'payish organi gul, uning markazida joylashgan urug'chi ichidagi urug'kurtakning tuzilishi va taraqqiyoti onalik gametafitining hosil bo'lishini o'rganish faqat biz yoshlarni bilimni oshiribgina qolmay, keyinchalik urug'chilik va seleksiya ishlarini olib borish uchun amaliy ahamiyatga ega hamdir. Qolaversa bu ajdodlarga tegishli ko'plab lipaning turlari yumshoq yog'ochga ega bo'lib, ulardan turli hil buyumlar tayyorlashda yoki sanoatda foydalanishda ahamiyatli tomonlarini o'rganishdir. Ularning ko'plab vakillari dorivorlik ahamiyatga ega ekanligi, jozibador, ta'surotli darajadagi ranglarga bo'yalgan gullari yuraksimon shakilga ega barglari bilan lipa keng ko'lamda ornamental va bog'larda qo'llanilishi mevalarni shamol yordamida tarqalish vazifasini, boshqalarning fikriga ko'ra esa changlatuvchi hasharotlarni jalb etish sifatida xizmat qilishi uchun zamin yaratish katta ahamiyatga ega.

Har-bir geografik guruhda lipa turlari mevasi bir vaqtda yetilmaydi. Yevropa mamlakatlaridagi guruhlar hammasidan erta (10-15-avgust), yetiladi. Shu guruhlarining Janubiy turlari *Tilia entosa* mevalari sentabr boshlarida yetiladi....qisman kech yetiladi. Sharqiy guruh turlari Yevropa turlari singari mevalari erta (sentabr boshlarida) yetiladi. Shimoliy lipalar *Tilia japonica*, *Tilia amurensis* huddi shunday Janubiy turi *endochrysea* ular faqat oktabr oyida yetiladi.

Lipalarning mevaga kirish sharoiti gullash va generativ organlar tuzilishiga va uning biologik xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Kuzatish davrida lipaning hamma turi to'liq gullab 2020-yil mevaga kirgan bo'lib, bu yerda materialogik sharoitlar mavjudligi bilan ajralib turgan. To'la gullab meva bergan *Tilia tomentosa* gulida ko'p sonli changchi gullarning bo'lishi, keskin ifodalangan. Bu o'simlik, hashoratlar tomonidan gullarining ko'p changlanishi kuzatilgan. Pishgan mevalar daraxtda uzoq vaqt tutib turiladi. Lipaning o'ziga xos biologik hususiyati shundaki mevaning gulyonbargi bilan bir vaqtda to'kilishidir, bu hodisa muhim bo'lganligi bois, ular shamol yordamida ona daraxtdan uzoqqa borib tushadi.

Shox-shabbaning mevalardan tabiiy tozalanishi dekabrda boshlanadi. Fevral o'rtalarida bu daraxtda faqat alohida mevalar qoladi. *Tomentosa* daraxti mevalardan tozalanishi qishda ahamiyatsiz. U asosan bahorda boshlanib, daraxt gullaguncha daraxt shohida turadi. Kurtak yozish davriga kelib, daraxtlarning bu turlari mevadan to'la tozalanadi. Lipa mevalarining tarqalishi zoxor yo'l bilan amalga oshadi. O, P. Xlonova (1965) G'arb Sibirdagi kuzatishlari, lipa yong'oqlari qator mayda umurtqali

hayvonlar oziqlanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Jumladan Osiyo o'rmon sichqoni (*Apodemus ektosus*), qizil dala sichqoni (*Cledhionomus rutilus*), dala ekanomchisi (*Microtus conomus*) lipa yong'oqlarini istemolchilari mevani tarqalishiga yordam beradi. lipa urug'larini tarqalishida tabiatda qushlar ham qatnashadi.

F. I. Rusanov (1955) kuzatishlarda kuzda primore o'rtasida ko'pincha lipa mevasini, gulyonbargchadan ajralmagan holatda (bir-necha o'nlab sonda) daraxt shoxlarida uchratdi. Ular yaxshi to'la yetilgan yetuk urug'lardir. Xuddi shu yil bu qushlar o'ziga qishga oziqa yig'adi. Lipa mevalarini qishga g'amlagan qushlar, ug'larni tarqalishiga yordam beradi, chunki ular ko'pincha g'amlagan joyini yo'qotib qo'yishadi.

Lipa o'simliklar dunyosining boshqa guruhlariga qaraganda har tomonlama murakkab tuzilgan. Lipa o'simligining urug' kurtagi ochiq urug'lilardagiga o'xshash qubba tangachalari ustida ochiq holda emas balki urug'ining tugunchasida tuguncha devori bilan o'ralgan holda yetishadi. Changlanish va ug'lanishdan so'ng urug'kurtakdan urug', tugunchadan esa meva hosil bo'ladi. Tugunchalar ichida yetiladigan urug'kurtaklar va meva ichida rivojlanadigan urug'lar tashqi muhitning noqulay sharoitidan sovuq va ortiqcha issiqdan, quruqlik ortiqcha namlikdan, zararkunanda va kasalliklardan himoyalangan bo'ladi.

Urug'ning yaxshi sog'lom rivojlanishi, tez va oson tarqalishi va o'sish jobiliyatini yo'qatmasligi tufayli o'simliklar olamida asta sekinlik bilan aukumronlik qala boshlaydi. Urug' ayni vaqtda ulaming ildiz, poya va barglardagi o'tkazuvchi to'qimalar uzun yog'ochlangan o'lik hujayralardan tashkil topgan naychalardan iboratligi, lipa o'simligida uning gullash biologiyasi, urug' maxsuldorligi, urug'larni sifatini o'rganish bilan birga uning murtak taraqiyotini bosqichma-bosqich o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Губанов И. А. 893. *Tilia cordata* Mill. — Липа сердцевидная, или мелколистная // Иллюстрированный определитель растений Средней России : в 3 т. / И. А. Губанов, К. В. Киселёва, В. С. Новиков, В. Н. Тихомиров. — М. : Товарищество науч. изд. КМК : Ин-т технол. исслед., 2003. — Т. 2 : Покрытосеменные (двудольные: раздельнолепестные). — С. 548. — 666 с. — 3000 экз. — ISBN 9-87317-128-9.(Gubanov I. A. 893. *Tilia cordata* Mill. - Linden heart-shaped, or small-leaved // Illustrated guide to plants of Central Russia: in 3 volumes / I. A. Gubanov, K. V. Kiseleva, V. S. Novikov, V. N. Tikhomirov. - M. : Partnership scientific. ed. KMK: Institute of Technol. issled., 2003. - V. 2: Angiosperms (dicotyledonous: separate-petal). - S. 548. - 666 p. - 3000 copies. — ISBN 9-87317-128-9.)

2.Дудченко Л. Г., Козьяков А. С., Кривенко В. В. Пряно-ароматические и пряно-вкусовые растения: Справочник / Отв. ред. К. М. Сытник. — К.: Наукова думка, 1989. — 304 с. — 100 000 экз. — ISBN 5-12-000483-0.

(Dudchenko L. G., Koziakov A. S., Krivenko V. V. Spicy-aromatic and spicy-flavoring plants: a Handbook / Ed. ed. K. M. Sytnik. - K. : Naukova Dumka, 1989. - 304 p. — 100,000 copies. — ISBN 5-12-000483-0.)

3.Мадебейкин И. Н., Мадебейкин И. И. Выращивание и использование липы // Пчеловодство : журнал. (Madebeykin I. N., Madebeykin I. I. Cultivation and use of linden // Beekeeping: journal.)

4.Бурмистров А. Н., Никитина В. А. Медоносные растения и их пыльца: Справочник. — М.: Росагропромиздат, 1990. — С. 103. — 192 с. — ISBN 5-260-00145-1(Burmistrov A.N., Nikitina V.A. Honey plants and their pollen: a Handbook. - M.: Rosagropromizdat, 1990. - S. 103. - 192 p. — ISBN 5-260-00145-1.)

5.Мадебейкин И. И., Мадебейкин И. Н. Липы разных видов // Пчеловодство : журнал. — 1999. — № 5. — С. 22—23.(Madebeykin I. I., Madebeykin I. N. Limes of different types // Beekeeping: journal. - 1999. - No. 5. - S. 22-23.)